

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA DAROMAD MANBALARI

Andijon davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchilari

Ahmedov Abdulhay Toshto'xtayevich,

Jabborova Sayyoraxon Muxammadqobilovna.

Andijon davlat pedagogika instituti ona tili adabiyot ta'lim yo'nalishi 1-

bosqch talabalari Arabboyeva Nasibaxon Alijon qizi,

Odilbekova Mushtariybegim Olimjon qizi

Annotatsiya: *Axboriy jamiyat nazariyasi insoniyat tarixidagi hozircha eng so'nggi tamaddun bo'lib, uning asosiy mahsuloti axborot va tafakkurdir. Ahamiyat bergan bo'lsangiz, dunyoning juda ko'p boy kishilari aynan intellekti evaziga investitsiya jamg'arishmoqda. Axborotni to'plash, qayta ishlash va tarqatish orqali har kecha-kunduzda milliardlab mablag' aylanishini tasavvur qilish qiyinmas.*

Kalit so'zlar: *axborot, daromad manbayi, yaratuvchanlik, qayta ishlash, intellekt, investitsiya, kashfiyot*

Аннотация: *теория информационного общества на данный момент является последней каплей в истории человечества, основным продуктом которой являются информация и мышление. Если вам все равно, многие богатые люди в мире откладывают инвестиции именно за счет своего интеллекта. Нетрудно представить, что миллиарды средств циркулируют каждую ночь, собирая, обрабатывая и распространяя информацию.*

Ключевые слова: *информация, источник дохода, креативность, переработка, интеллект, инвестиции, открытия*

Annotation: *The Theory of an Information Society is so far the most recent tamaddun in the history of mankind, the main product of which is information and thinking. Given the importance, so many rich people of the world are investing precisely in return for their intellect. It is not difficult to imagine that billions of*

funds will circulate every night through the collection, processing and dissemination of information.

Keywords: *information, source of income, creativity, processing, intelligence, investment, discovery*

Azal-azaldan insoniyatdagi olamni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ajoyib ixtirolar qilishga undagan. Shu yaratuvchanlik qobiliyati vositasida ko‘plab ilm sohiblarining nomi manguga bitildi. Tarixchilar har bir asrning odamzot uchun alohida o‘rni, boshqasini takrorlamaydigan ahamiyati borligini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, qadim chinliklarning qog‘ozni kashf etishidan boshlangan madaniyat olmoniyalik muhandis Guttenbergning bosma dastgoh yaratguniga qadar ming bor takomillashib, zamonlar chig‘irig‘ida elandi. Va nihoyat, biz nafas olayotgan davr - XXI asr endilikda “axborot” so‘zi bilan yonma-yon ishlatilmoqda. Jadallik bilan rivojlanib borayotgan texnika va texnologiyalar tizimi inson tafakkurining sarhad bilmas ekaniga ishora.

axboriy jamiyat tushunchasi o‘tgan asrning 60-yillarida taniqli siyosatchi va iqtisodiyot bilimdonlari tomonidan tilga olingan postindustrial jamiyat kontseptsiyasining uzviy davomi sifatida vujudga keldi. Postindustrial jamiyat deganda, yuksak darajada sanoatlashgan, ilmiy-texnikaviy inqilob tufayli barpo etilgan barqaror iqtisodiy turmush tarziga ega tuzilma ko‘z oldimizga keladi. Bunda yaratilayotgan mo‘jizaviy ixtirolar kashfiyot bo‘libgina qolmay, xizmat ko‘rsatishga va shu orqali mislsiz daromad keltirishga yo‘naltiriladi. Postindustrial jamiyat axboriy jamiyat qurish yo‘lidagi o‘ziga xos evolyutsion jarayondir.

Axboriy jamiyat nazariyasi insoniyat tarixidagi hozircha eng so‘nggi tamaddun bo‘lib, uning asosiy mahsuloti axborot va tafakkurdir. Ahamiyat bergan bo‘lsangiz, dunyoning juda ko‘p boy kishilari aynan intellekti evaziga investitsiya jamg‘arishmoqda. Axborotni to‘plash, qayta ishlash va tarqatish orqali har kecha-kunduzda milliardlab mablag‘ aylanishini tasavvur qilish qiyinmas. Birgina “Microsoft” kompaniyasi orqasidan minglab aqliy salohiyat sohiblari “suv

ichadi”. Masalan, internet tizimidagi brauzer (qidiruv xizmati) xo‘jayinlari saytga kiruvchilarni chek-chegarasiz ma’lumotlar bilan ohanrabodek chorlab, o‘z navbatida, bu xaridorlar e’tiboriga yirik korxonalar va firmalarning mahsulotlari reklamasini ham havola etish natijasida millionerlarga aylanishdi.

Amerikalik siyosatchilar axboriy jamiyatning bir qator muhim ko‘rsatkichlarini sanab o‘tishgan. Axborot mahsulotlari (ommaviy axborot vositalari mahsulotlari, madaniyatning turli ko‘rinishlari va hokazo) bora-bora ichki yalpi mahsulotlar (ishlab chiqarish sanoati, agrosanoat, neft qazish va metallurgiya) keltirayotgan umumiy daromadga ortib ketadi. Yagona global axborot makonini yaratish uchun, birinchidan, har bir fuqaroning xabar va yangiliklarga bog‘liqlik darajasini oshirish talab etiladi. Ular bir soatlik vaqtini ham o‘ziga aloqador bo‘lgan axborotsiz tasavvur qilolmaydigan bo‘lib qoladi. Ikkinchidan, odamlar dunyoviy jarayonlar: siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy, mafkuraviy voqea-hodisalarga ham taalluqli axborot resurslari bilan ipsiz bog‘lanishadi. Uchinchidan, kishilarning axborot va axboriy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji o‘z vaqtida qondirilishi lozim. Muxtasar aytganda, bunday jamiyatda axborot eng tansiq “taom” bo‘lib qoladi.

Insoniyat umumtamaddunini taniqli futurolog A.Toffler uchga bo‘ladi: qishloq xo‘jaligi inqilobi, sanoat inqilobi va axboriy inqilob. Bularning uchinchisi – “axboriy jamiyat” so‘zining muomalaga kiritilishi bobida mutaxassislar ikki xil qarashni o‘rtaga tashlamoqda. Ayrimlarining fikricha, bu birikma yapon hukumatining ishlab chiqarishda strategik maqsadlarni belgilab olish bo‘yicha mas’ul guruhi tomonidan tayyorlangan mamlakatlarning istiqboldagi ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy yaratuvchanlikka oid salohiyatini tadqiq etishga mo‘ljallangan maxsus nutqda tilga olingan.

Ikkinchi toifadagi mutaxassislar esa axboriy jamiyat tushunchasini dastlab G‘arb siyosatchilari B.Klinton va A.Gor Milliy ilmiy jamg‘arma konferentsiyasida so‘zlagan nutqlarida ishlatgan, deyishadi. Axborot jamiyat qurish dasturi bo‘yicha Yevropa ekspertlar guruhi rahbari Martin Bangemann bu fikrni o‘sha konferentsiyadan so‘ng uchta yirik axborot magistralning buniyod

bo‘lishi, xususan, Kanada, AQSh va Buyuk Britaniya nashrlarining aynan axboriy jamiyat to‘g‘risidagi davomiy materiallar berishga qat’iy kirishgani bilan izohlaydi.

1960-yillarning ikkinchi yarmida “axboriy xuruj” degan atama paydo bo‘ldi. Axborotning jamiyatdagi ko‘lami, ko‘rsatkichi yuqori sur‘atlarda o‘sib bordi. Va bu narsa ko‘plab davlatlarda axborotga tegishli qonunlar ishlab chiqish hamda izchillik bilan joriy etishga sabab bo‘ldi.

Ushbu qonunlarda asosan inson huquqlarini toptash va haqoratlash, tuhmat qilishga qaratilgan axborotlarni tarqatish hamda daromad orttirish, odamlar shuurida voqea-hodisalarga nisbatan salbiy fikr uyg‘otish, vahimaga solish singari xatti-harakatlar jinoyat, deb belgilandi. Axboriy xurujlardan yurak oldirgan sobiq ittifoq esa o‘z hududi va bu orqali aholisi ongini “izolyatsiya”ladi. Axboriy jamiyat tushunchasiga qarshi tsenzurani o‘rnatdi. Lekin shunga qaramay, G‘arb mamlakatlarining ayrimlaridagi demokratik qarashlar, liberallashtirish kurtaklari “axboriy jamiyat”ning rivojlanishiga zamin yaratdi.

Axborot mo‘maygina daromad manbai bo‘lgach, u bilan jiddiy shug‘ullanishga, tashkiliy jihatdan uni yetkazib beruvchi vositalarni takomillashtirishga zarurat tug‘ildi. Mafkuraviy tomondan esa, uni to‘plash va tarqatishda ehtiyotkorlik masalalariga e‘tibor qaratildi, davlatlarning sir saqlanadigan ma‘lumotlari bilan shug‘ullanuvchi alohida axborot xavfsizligi organlari tuzildi. Bunga parallel ravishda xorijiy mamlakatlar sirlarini o‘zlashtiruvchi maxfiy razvedka byurolari ham tashkil etildi.

Bir jihatni hech qachon yoddan chiqarmaslik kerakki, axboriy jamiyatda yashayotgan har bir shaxs arziyas soatlar ichida qabul qiluvchi axborotni ongli ravishda saralashga, qiyoslashga, oqini oqqa, qorasini qoraga ajratishga o‘rganishi shart. Bu nainki shaxsiy axborot xavfsizligi uchun, balki jamiyatning ma‘lum “xuruj”lardan xoli bo‘lishida asqotadi.

Soha mutaxassisi F.Maxlup 1960-yillar boshida axborotga ta‘rif berayotib, uni tafakkurning dastlabki mahsuloti, ya‘ni xomashyo sanoatining (hali tayyor bo‘lmagan!) bir turi degandi. Rus olimi V.Glushkov esa uni jamiyatni taqsimlash

va boshqarishda “qog‘ozsiz texnologiya kontseptsiyasi”, deb ko‘rsatgan. Aynan yaponiyaliklarning axborotning xomashyo sifatida qanchalik qadrli ekanini faol targ‘ib qilishi oqibatida dunyo bozorida raqobat kuchayib ketgani bor gap. Yapon sanoq sistemasi va hisoblash mashinalari axboriy jamiyat uchun suv va havodek zarur bo‘lgan texnoqatlam vazifasini bajargan bo‘lsa, u orqali “samurai”lar jahon bozorida yetakchilikni qo‘lga oldi.

1980 yilga kelib, axborot sotish va tegishli xizmatlar ko‘rsatish birdaniga yuqorilab ketdi. Masalan, AQShda o‘sha vaqtdayoq qishloq xo‘jaligi sohasida 3 foiz, xomashyo ishlab chiqarishda 20 foiz, maishiy xizmat ko‘rsatish tarmog‘ida 30 foiz va axborot bilan shug‘ullanishda eng ko‘p - 47 foiz aholi band edi.

Axboriy sektor - harakatdagi, tez o‘svuvchi industriyadir. U, o‘z navbatida, minglab odamlarni ish bilan ta'minlamoqda. AQSh kabelli telesanoatida bugungi kunda 100 ming nafardan ziyod ishchi faoliyat yuritayapti. Shu kabi jihatlarni inobatga olib, BMT Bosh Assambleyasi 2006 yil 27 martdagi rezolyutsiyasida 17 mayni - xalqaro “axboriy jamiyat kuni” sifatida nishonlash taklifi bilan chiqdi.

ADABIYOTLAR:

1. Khalilova, L., Ravshanov, H., Xudayberdiyev, R., & To'rakulova, G. (2024). DIGITAL TECHNOLOGY INTEGRATION FOR IMPROVING FOREIGN LANGUAGE LEARNING. Евразийский журнал технологий и инноваций, 2(1), 188-191.
2. Saidov, J. D. Study of the process of database and creation in higher education. Guliston. 2021.
3. Toshtemirov, D. (2023). TECHNOLOGIES FOR CREATING E-LEARNING RESOURCES. Science and innovation, 2(B1), 396-401.
4. Mavlonov, S., & Adilov, A. (2023). TALABALARNING IJODIY VA KASBIY TA'LIMIDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH OMILLARI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6), 36-40.